

Davlat xaridlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslari: shakllanish va rivojlanish genezisi

Urinboyeva Dilnoza
“Shartnoma huquqi”yo’nalishi magistranti

Dunyodagi ko’plab mamlakatlar singari, O’zbekiston Respublikasida davlat xaridi tizimini isloh etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini ochiq-oydinligini ta’minlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o’z ma’ruzalarida “...kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kreditlar, xom ashyo resurslari, shuningdek, davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. 2011 yilda Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga maxsus kvotalar ajratish orqali kichik biznesning davlat xaridlari tizimidan foydalanishini kengaytirish borasida alohida mexanizmni ishlab chiqish va amalda qo’llash, kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko’rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo’yicha ochiq elektron tizimni bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari topshiriladi”¹, - deb ta’kidlaganlar.

Bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko’zlangan maqsad, nafaqat davlat mablag’laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy intizomga rioya etish darajasini oshirish ham ko’zda tutilgan.

Davlat xaridlarining o’ziga xos o’rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ushbu tizimni joriy etishga mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida katta e’tibor berilmoqda. Bu borada avvalo, tizimdagi munosabatlarning qonunchilik negizi shakllantirildi. Davlat xaridlari bilan bog’liq jarayonlarni huquqiy tartibga solishda dastlab Fuqarolik kodeksi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi, 2000 yil 21

¹ Prezident I.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor yo’nalishlarga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi., Xalq so’zi., 2011 yil 22 yanvar, №16 (5183)., 3-bet, 5-ustun, 8-xat boshi.

noyabrda "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar muhim omil bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, keyingi yillarda bu sohada yangi qadamlar qo'yildi. Bunga esa mamlakatimiz Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida"gi qarori muhim asos bo'ldi. Mazkur dasturilamal hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi esa Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 1 apreldagi "Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida ta'minlanmoqda.

Bundan tashqari, ushbu qaror bilan kichik biznes subyektlaridan davlat uchun xarid qilinadigan tovarlar (ish, xizmatlar) ro'yxati, shuningdek, O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron savdolar orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha tovar(ish, xizmat)larning alohida turlari ro'yxati ham tasdiqlandi. Shu bilan birga, ayni hujjat talablari natijasida kichik biznes subyektlari uchun ajratiladigan kvotalarni o'z ichiga olgan davlat xaridlarining yangi, zamonaviy ochiq va shaffof mexanizmi tatbiq etildi. Yana bir muhim jihati, www.xarid.uz maxsus axborot portali faoliyatining yo'lga qo'yilganidir.

Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimidan foydalanishni kengaytirish borasida alohida mexanizm ishlab chiqilishi va amalda qo'llanilishi, kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xarid qilish, ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarga doir davlat buyurtmalarini joylashtirish bo'yicha ochiq elektron tizimning bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida davlat budjeti mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga erishiladi.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi borasida qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining malaka darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda qatnashuvchi boshqa subyektlar ishtirokida davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat budjetining g'azna ijrosi sharoitida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bugungi kunda budjet islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1475-sonli "Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi etib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi deb belgilandi.

Qarorga ko'ra, *Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining asosiy vazifalari* va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- tovarlar(ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan davlat budjeti va boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'larining maqsadli va ratsional ishlatilishi, shuningdek davlat xaridlari sohasida qonun hujjatlariga rioya qilish ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish;

- davlat xaridlari samaradorligi ustidan doimiy monitoringni amalga oshirish, ularni takomillashtirish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqish va qabul qilish;

- davlat xaridlari jarayoniga kichik biznes subyektlarini faol va keng qo'lamda jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

- tender (konkurs) va birja savdolarida ishtirok etuvchi barcha subyektlar vakillarining malakasini oshirishga imkon yaratish, umumqabul qilingan xalqaro norma va standartlarni joriy qilish.

Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi etib tayinlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi *G'aznachiligining asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat²:

- davlat xaridlari bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish, davlat xaridlarini amalga oshirishda narxlarni shakllantirish jarayonini nazorat qilish;

- Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining qonun hujjatlari bilan uning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha materiallarini va qarorlari loyihalarini tayyorlash;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari jarayonida ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Hukumat komissiyasi qarorlari bajarilishini nazorat qilish;

- davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda qatnashish.

Davlat xaridlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish borasida keyingi yillarda bir qator huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va amalga kiritilgan. Shunday hujjatlardan biri - Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 6 sentyabrdagi 260-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron auksion savdolari tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomdir. Ushbu nizom O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron auksion savdolari auksion shaklida tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilab berdi. Mazkur nizom bilan davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan ro'yxatga asosan bitta kontrakt bo'yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha teng bo'lgan summada tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridlari faqat boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan ochiq auksion shaklida o'tkaziladigan, buyurtmachilar tomonidan belgilangan mezonlar va

² Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi to'g'risida Nizom. O'zR VMning "Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2011 yil 1 aprel, 100-son. 1-ilova

shartlardan kelib chiqib tovar (ishlar, xizmatlar) maqbul etkazib beruvchisini tanlash usulini o'zida ifodalaydigan elektron savdolar orqali amalga oshiriladi.

Bu me'yoriy hujjatlarning ahamiyati davlat xaridlarida, boshqa teng shart-sharoitlarda kichik biznes subyektlariga ustunlik berilishida, tegishli vazirlik va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasiga birja qoshida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillarining malakasini oshirish kurslarining tashkil etilishida, davlat xaridlari jarayonida ishtirok etuvchi budjet tashkilotlarni birjada akkreditatsiya qilish bepul amalga oshirilishida, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy zakalat puli miqdori savdoga qo'yiluvchi tovarlar (ishlar, xizmatlar) boshlang'ich narxining uch foizidan oshmasligida, birjaning komission yig'imi miqdori har bir tomondan bitim summasining 0,05 foizidan oshmasligi belgilab qo'yilganida, shular natijasida xususiy sektor uchun yaratilgan qulaylik va imtiyozlarda namoyon bo'ladi.

2013 yilga kelib davlat xaridini tashkil etishning me'yoriy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar doirasida Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 11 iyundagi 166-son qarori bilan "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida elektron xaridlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasida boshlang'ich narxni pasaytirish yuzasidan elektron xaridlarni auksion savdolar shaklida tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilab berdi. Nizomga asosan davlat va korporativ xaridlar bo'yicha auksion savdolarini tashkil etish tartiblari belgilandi. Nizomda "davlat xaridlari" va "korporativ xaridlar" atamalarining mazmuni aniqlashtirildi. Unga ko'ra:

davlat xaridlari — O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga va Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan ro'yxat bo'yicha boshqa markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari;

korporativ xaridlar — davlat ulushi ustun bo'lgan tabiiy monopoliyalar subyektlari, korxonalar va tashkilotlar elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan aniqlanadigan ro'yxat bo'yicha ustav fondidagi davlat

ulushi 50 foizdan ko'p bo'lgan tabiiy monopoliyalar subyektlari, davlat unitar korxonalari va xo'jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari hisoblanadi.

Shuningdek, Hukumat komissiyasining davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha ishchi organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi hamda korporativ xaridlarni tashkil etish bo'yicha ishchi organi sifatida O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida" 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-son qarorining 23-bandida "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlaridan O'zbekiston tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portalini orqali elektron savdolar yordamida eng zarur tovar (ish, xizmat)lar davlat xaridini amalga oshirish tartibini soddalashtirish bo'yicha 2015 yilning 1 martigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish" deb belgilangan edi. Ushbu bandga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 26 mart 69-sonli Qarori bilan "O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portalini orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi va 2015 yil 1 iyundan boshlab amalga kiritildi.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portalini orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning elektron katalog orqali amalga oshiriladigan davlat xaridini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

Yuqoridagi bobda o'rganilgan masalalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, davlat xaridi tushunchasi sobiq sovet davridagi "davlat xaridi" tushunchasidan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda davlat xaridi mexanizmlari

orqali hukumat davlat sektorining tovar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondiribgina qolmay, undan iqtisodiy o'sish omili sifatida foydalanadi, davlat xaridi ishlab chiqaruvchilar va mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi sog'lom raqobatni mustahkamlaydi, davlat xaridiga kichik biznes subyektlarini jalb qilish mexanizmlari orqali bu soha tadbirkorlari qo'llab-quvvatlanadi, sotilayotgan mahsulotlarning maqbul narxlarda taklif etilishi ta'minlanadi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda davlat xaridini samarali tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari shakllangan va 2011 yildan boshlab birjada savdo ishtirokchilarining yuqori darajadagi raqobatini ta'minlaydigan, elektron savdo shaklida amalga oshiriladigan zamonaviy davlat xaridlari tizimi jori yetildi va takomillashmoqda. Shu bilan birga, davlat xaridi tizimining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat xaridini tashkil etishda ilg'or xorijiy tajribani va yuqori tezkorlik bilan ishlaydigan axborot texnologiyalarini tatbiq etish masalari dolzarb bo'lib turibdi.

Qisqacha qilib aytganda, davlat xaridlari sohasini rivojlantirishga qaratilib qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar hamda ko'rilyotgan choralar qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy omili bo'lmoqda. Ayni paytda kuzatilayotgan samaralar salmog'ini yanada oshirish, davlat xaridlari amaliyotini bundan ham kengaytirish, shu orqali davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik imkoniyatlaridan unumli foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.